



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2017 yil yanvar-iyul

## RAQAMLAR:

- 2017 yil yanvar-iyul oylarida bozor xizmatlari hajmi 1667,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 127,9 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 921,0 ming.so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.


2017 yil yanvar-iyul oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1667,1 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,1 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (30,7 %) tashkil etadi.

## 2017 yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)




## Ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Savdo xizmatlari –511,2 mlrd so'm, transport xizmatlari - 370,9 mlrd.so'm, moliyaviy xizmatlar - 210,2 mlrd.so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 140,6 mlrd.so'm, boshqa xizmatlar - 46,8 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan oshganligi qayd etildi.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

### 2017 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2017 yil yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (127,9%), ta'lim sohasidagi xizmatlar (120,0 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (112,3), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111,0 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (110,2 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2017 yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

|                                                                                           | Hajmi,<br>mlrd.so'<br>m | O'tgan yilga<br>nisbatan<br>o'sish sur'ati,<br>% |
|-------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------|--------------------------------------------------|
| <b>Xizmatlar- jami</b>                                                                    | <b>1667,1</b>           | <b>110,1</b>                                     |
| shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:                                                     |                         |                                                  |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari                                                     | 140,6                   | 111,0                                            |
| moliyaviy xizmatlar                                                                       | 210,2                   | 127,9                                            |
| transport xizmatlari                                                                      | 370,9                   | 105,3                                            |
| shu jumladan: avtotransport xizmati                                                       | 351,0                   | 105,0                                            |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari                                                         | 39,2                    | 112,3                                            |
| savdo xizmatlari                                                                          | 511,2                   | 107,0                                            |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar                                                     | 70,0                    | 110,3                                            |
| tna'lim sohasidagi xizmatlar                                                              | 49,0                    | 120,0                                            |
| sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar                                                    | 28,5                    | 110,2                                            |
| ijara xizmatlari                                                                          | 45,4                    | 108,1                                            |
| kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yi-<br>cha xizmatlar                     | 72,4                    | 107,0                                            |
| shaxsiy xizmatlar                                                                         | 67,1                    | 107,8                                            |
| me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar<br>va tahlil sohasidagi xizmatlar | 15,8                    | 108,6                                            |
| boshqa xizmatlar                                                                          | 46,8                    | 108,4                                            |